

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI**



**RAQAMLI JAMIYATDA FAN VA TA’LIMNING INTEGRATSIYALALASHUVI:
MATEMATIKA, IQTISOD, PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING YANGI
YONDASHUVLARI**
mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 20-21-aprel)

JIZZAX-2026

Raqamli jamiyatda fan va ta’limning integratsiyalalashuvi: matematika, iqtisod, pedagogika va psixologiyaning yangi yondashuvlari. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to’plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Amaliy matematika kafedrası, 2026-yil 20-21-aprel 505-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo’yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to’plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo’nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o’qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Tovboyev, t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O’ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo’rayev M.M.

Mazkur to’plamga kiritilgan ma’ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to’g’riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o’zlari mas’uldirlar.

Discussion forums	Online collaborative spaces	Writing, Reading	Forum debates and essay discussions
Collaborative platforms	Shared digital documents	Writing, Speaking	Group presentations and Google Docs projects

Overall, ICT in Uzbekistan strengthens learning by **combining motivation, autonomy, authentic content, and collaboration**, which collectively improve students’ communicative competence. The evidence suggests that ICT is no longer supplementary but central to modern language education in Uzbekistan. Successful implementation, however, depends on adequate infrastructure, teacher training, and curriculum alignment with digital learning strategies.

In conclusion, the integration of ICT into language learning in Uzbekistan enhances instructional effectiveness, motivates learners, and provides opportunities for autonomous and collaborative learning. Future research should explore innovative digital teaching methods, measure their long-term impact on proficiency, and develop context-specific strategies for Uzbek educational settings (Chapelle, 2003; Beatty, 2010; Dudeney & Hockly, 2012).

References:

1. Beatty, K. (2010). *Teaching and Researching Computer-Assisted Language Learning*. Pearson.
2. Chapelle, C. (2003). *English Language Learning and Technology*. John Benjamins Publishing.
3. Dudeney, G., & Hockly, N. (2012). *ICT in ELT*. Oxford University Press.
4. Hubbard, P. (2009). *Computer Assisted Language Learning: Critical Concepts in Linguistics*. Routledge.
4. Kukulska-Hulme, A., & Shield, L. (2008). Mobile-assisted language learning. *ReCALL*, 20(3), 271–289.
6. Richards, J., & Rodgers, T. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
7. Warschauer, M., & Healey, D. (1998). Computers and language learning: An overview. *Language Teaching*, 31(2), 57–71.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Safarova Madina Azamat qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti 3-bosqich doktoranti

Bugungi kunda ta’lim tizimini rivojlantirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Inson taraqqiyotida ta’lim va tarbiya masalasi qadim zamonlardan buyon dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan bo‘lib, bu g‘oya qadimgi mutafakkirlar tomonidan ham ilgari surilgan. Jumladan, Aristotel tomonidan bildirilgan yosh avlod tarbiyasining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqidagi fikrlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida esa ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifatini oshirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ kompetentligini shakllantirish darajasi yetarli emasligi, ularning ko‘pchiligida ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va innovatsion yondashuv ko‘nikmalari to‘liq rivojlanmaganligi kuzatilmoqda. Bu esa zamonaviy ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan talablar bilan mavjud holat o‘rtasida muayyan ziddiyat mavjudligini ko‘rsatadi. Mazkur ziddiyatni bartaraf

etish bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Zamonaviy ta’lim tizimi jamiyatning jadal rivojlanishi, axborot makonining kengayishi va innovatsion texnologiyalarning kirib kelishi bilan uzviy bog‘liq holda yangilanib bormoqda. Bu jarayon o‘qituvchilardan nafaqat bilim berishni, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirishni talab etadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning fikrlash uslubi va ijodiy salohiyati shakllanishi sababli, bu bosqichda faoliyat yurituvchi o‘qituvchilarning kreativ kompetentligiga alohida e’tibor qaratish zarur.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kreativlik tushunchasi turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilinsada, ularning barchasini birlashtiruvchi asosiy jihat – bu yangilik yaratish, noan‘anaviy fikrlash va innovatsion g‘oyalarni ilgari surish qobiliyatidir. Pedagogik faoliyatda kreativlik o‘qituvchining tashabbuskorligi, moslashuvchanligi, samarali muloqot o‘rnatish qobiliyati hamda ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil eta olishida namoyon bo‘ladi. E.E. Antonova va boshqa tadqiqotchilar pedagogik kreativlikni rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini ta’kidlaydi.

Kompetentlik tushunchasi esa zamonaviy pedagogikada muhim o‘rin tutib, u shaxsning nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda samarali qo‘llay olishi, murakkab va noaniq vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishi bilan tavsiflanadi. Mazkur tadqiqotda kreativ kompetentlik integrativ sifat sifatida talqin qilinib, u quyidagi tarkibiy qismlar asosida ko‘rib chiqiladi: kognitiv komponent (kasbiy bilimlar tizimi), faoliyatli komponent (amalda qo‘llash ko‘nikmalari), motivatsion komponent (ichki ehtiyoj va qiziqishlar), refleksiv komponent (o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyati). Ushbu komponentlarning uyg‘un rivojlanishi pedagogning kreativ kompetentligini shakllantirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, an‘anaviy ta’lim usullari ko‘p hollarda o‘quvchilarni passiv bilim oluvchi sifatida shakllantiradi va ularning mustaqil fikrlash hamda ijodiy izlanish ko‘nikmalarini cheklaydi. Zamonaviy ta’limda esa interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyatlar yaratish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim jarayoni faollashtiriladi. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarning bilimlarni mustaqil ravishda egallashiga, tahlil qilishiga va xulosa chiqarishiga imkon yaratadi. Natijada, ularning kreativ kompetentligi samarali rivojlanadi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning tizimli modeli ishlab chiqildi; kreativ kompetentlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtirildi; raqamli ta’lim muhiti asosida kreativ kompetentlikni rivojlantirish mexanizmi taklif etildi; interfaol metodlar asosida kreativ kompetentlikni rivojlantirishning samarali yo‘llari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Ushbu yondashuv pedagogik ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kreativ kompetentlikni rivojlantirish o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Kreativ kompetentlikka ega bo‘lgan pedagog nafaqat mavjud bilimlarni yetkazadi, balki yangi pedagogik g‘oyalarni ishlab chiqadi, ta’lim jarayonini moslashuvchan tashkil etadi va o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantiradi. Nazariy tahlillar va amaliy kuzatishlar asosida kreativ kompetentlik ko‘rsatkichlarining oshishi ta’lim samaradorligining ortishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish uchun ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, raqamli ta’lim muhitidan samarali

foydalanish, talabalarining mustaqil ta’lim faoliyatini qo’llab-quvvatlash hamda ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan metodik tizimni takomillashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish orqali pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish, ta’lim jarayonini innovatsion asosda tashkil etish hamda o’quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Bu esa o’z navbatida jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi, yuqori malakali va raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, “O’zbekiston” nashr., Toshkent-2023.
2. Sh.M.Mirziyoyev, “O’zbekiston 2030” strategiyasi, Toshkent sh., 2023-yil 11-sentabr, PF-158-son.
3. Sh.M.Mirziyoyev, “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risidagi” Toshkent sh., 21.06.2022-yil PQ-289-son.
4. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A., “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” T:2008-y., 14-bet.
5. Abdullayeva B., Usmanbayeva M., Asqarova O’., Ehsonov A. F., Hakimov S. Pedagogika: Izohli lug’at. –Toshkent:Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2020-y., 160-bet.
6. To’raqulova M., O’quvchilarda yangi g’oyani shakllantirish asosida kreativlikni rivojlantirish. “Ta’lim – tarbiya jarayonida shahs kreativ qobiliyatini shakllantirishning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy –amaliy – onlayn konferensiya materiallari. Jizzax 2022 y.

BO’LAJAK MUHANDISLARGA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O’ZGARMAS TOK QONUNLARINI NOSTANDART TOPSHIRIQLAR ORQALI O’RGATISH METODIKASI

Baratov Jo'raqozi Shukurjon o'g'li

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti doktoranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda bo’lajak muhandislarga o’zgarmas tok qonunlarini o’qitishda integrativ yondashuvning ahamiyati hamda nostandart topshiriqlar asosida ta’lim samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Fizika fanini kasbiy fanlar bilan integratsiyalash orqali talabalarining mantiqiy fikrlashi, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish bilim, ko’nikma, malaka va kompetensiyasi hamda hayotiy ko’nikmalari rivojlantirilishi asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: integrativ yondashuv, o’zgarmas tok, Om qonuni, nostandart topshiriq, kasbiy kompetensiya, muhandislik ta’limi, promb injineri.

Kirish

Hozirgi texnologik taraqqiyot sharoitida muhandislik ta’limi tizimida nazariy bilimlarni amaliyot bilan integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Elektr texnikasi va elektronika fanlarining asosi bo’lgan o’zgarmas tok qonunlarini chuqur o’zlashtirish bo’lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim omildir. O’zgarmas tok